

Alisher Navoiy dostonlarida saxovatli shaxs timsoli.

Oxista Xushnazarova

Mutaxassislik: 5A120101-Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti) (2-bosqich)

***Annotatsiya:** Mumtoz adabiyotimizda saxovat, muruvvat, oliyhimmatlilik timsoli sanalib kelgan Hotam Toy obrazi fors-tojik va turkiy xalqlar adabiyotida keng tarqalgan. Hotam Toy obrazining asrlar davomida yuksalib borgan mazmuni insoniyatning o'z taraqqiyotida bosib o'tgan murakkab jarayonlarning ifodasidir. Bu fazilatlar o'zlarining tub ildizlari bilan xalq og'zaki ijodiyotidan boshlanadi. Saxovat va qanoat Sharq shoirlari tomonidan eng yuksak fazilatlar sifatida kuylab kelingan mavzu deb qaraladi. Xususan, Alisher Navoiy o'z asarlarida oliyhimmatlilik, saxovat, muruvvat, qanoat, kabi fazilatlarni ifoda etuvchi obrazlarni jamiyat bilan bog'lagan holda yaratdi.*

Bosh qahramoni Hotam Toy bo'lgan hikoyat va rivoyatlar O'rta va Yaqin Sharq xalqlari, ayniqsa, fors-tojik, o'zbek xalqlari orasida keng tarqalib kelgan. Bunday hikoyat va rivoyatlar eldan elga, og'izdan og'izga ko'chib yurgan. Buning natijasida sujet va u qamrab olgan voqealar, timsollar ham har bir xalq fikriga, tushunchalariga qarab, har bir davr talabi va muayyan davrda yashagan ijodkor istaklari asosida o'zgarib, moslashib bo'rgan. Har bir xalq bu hikoyat va rivoyatlarda o'z orzulari ifodasini, uning qahramonlari timsolida o'zi tasavvuridagi kishilarning turmush sharoiti yaratgan g'oyalarini ko'rgan. Hotam Toy nomi bilan bog'liq sujet asosida butun Sharq adabiyotida yaratilgan hikoyatlar batafsil o'rganish, ularni qiyosiy tadqiq etish maxsus tekshirishni talab qiladi.

Hotam Toy obrazi fors-tojik adabiyotida paydo bo'lgan bo'lsada, o'zbek mumtoz adabiyotida ham salmoqli o'ringa ega bo'lgan an'anaviy obrazlar qatoriga kirganligini kuzatish mumkin.

Alisher Navoiyning "Mahbub ul – qulub" asari komil inson tarbiyasiga doir muhim manbalardan hisoblanadi. Ayniqsa, asarning ikkinchi qismida ma'naviy barkamollikka oid qator fazilatlar sharhlanadiki, ulardan biri – qanoatdir. Qanoatga shunday ajoyib ta'rif beriladi: "Qanoat – bir chashmadirki, undagi boylik sochilgan

bilan kamaymaydi. U bir ekinzorki, urug‘i izzat va shafqat hosilini beradi; u bir daraxtdirki, unda qaram bo‘lmaslik va hurmat mevasi bordir”.

Asarning uchinchi qismidagi ta’riflar bir-biridan qimmatbaho ma’naviy duru gavharlardir. Xususan, saxovat va himmat to‘g‘risidagi ta’rifda ko‘ngil mulkini zabt etuvchi quyidagi mushohadalar mavjud:

“Himmat ahlining ixtisosi saxovatdir; bu ulug‘ sifat pokiza kishilarga xosdir. Odam bir badan bo‘lsa, himmat uning jonidir; himmatlilardan olam ahli uchun yuz ming sharaf va shukuh yetishadi... himmatsiz odam xazina topsa ham buyuklarga teng bo‘lmas”.¹

Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asaridagi quyidagi hikoyasi ham ahamiyatlidir:

Jo‘na degan juda odil va insofli shoh bo‘lgan. Bu shoh saxiyligi bilan nom chiqargan. Bir kuni dehqon shohga bir savat nok tuhfa qiladi. Sovg‘a evaziga shoh dehqonga hech narsa bermaydi. Birnecha kundan keyinshohning yodiga qilgan xatosi keladi va u o‘zini noqulay sezadi. Shoh o‘sha dehqonni chaqirtirib kelib, nokning evaziga nima berishi lozimligini aytadi. Dehqon shohdan bir bolta va bir arra talab etadi. Shoh dehqonning undan ranjiganini va o‘sha nok daraxtini kesib tashlash niyatida ekanligini fahmlaydi. Shoh vaziriga nok keltirilgan savatda to‘latibdehqonga oltin berishni buyuradi. Vazirlar shunday katta mablag‘ni dehqonga berib yuborishni ep ko‘rmaydilar. Buni fahmlagan shoh dehqonga oltinni ikki barobar ortiq berishga buyuradi.

Hikoyada mehnatkash xalq mehnati qadrlanishi va taqdirlanishi kerak, degan g‘oya ilgari suriladi. Bunda adolatli, oliyhimmat, saxiy shohgina mehnatning qadriga yetishi mumkin, degan fikr ifodalanadi. Navoiy saxiylik, himmatlilikni kishining olijanob fazilatlaridan biri deb biladi. Shoh Jo‘na kabi saxiy bo‘lishni targ‘ib qiladi.²

Alisher Navoiy “Xamsa”sining “Sab’ai sayyor” dostonida ham xayr-saxovatli obraz qatnashgan hikoyat mavjud. Bu hikoyat “Avvalgi iqlim yo‘lidan

¹Д. Саидова, АлишерНавоийижодидакомилинсонмасаласи, // Til va adabiyot ta’limi, 2007, 7-son, 8-sahifa.

²Н. Каримова, Навоий-меҳнат куйчиси, // Ўзбек тили ва адабиёти, 1965, 1-сон, 48-50-саҳифа.

keltirilgan musofirning afsonasi”deb nomlangan. Hikoyada saxovatli obraz sifatida Hotam Toy emas, Axiy obrazi keltirilgan.

“Halab shahrida bir badavlat xoja bo‘lib, uning butun rasmu odati mehmonnavozlikdan iborat edi. Uning xalq orasida obro‘-e‘tibori behad bo‘lgani singari, mol-davlatining ham son-sanog‘i yo‘q edi. Bir katta mehmonxonasi bo‘lib, unda qancha oshna-og‘ayni bo‘lsa, shuncha begonalar ham mehmon bo‘lar edilar. O‘zi nihoyatda rahmdil, tabiatan saxiy odam edi. Oti Axiy bo‘lib, butun shahar eli ichida ma‘lum va mashhur edi. U goh-goh otgaminib, katta-kichik har xil ko‘chalarda sayr qilib kezar, boshi berk ko‘chalarga ham kirar, vayronalarni ham axtara edi. Qasrda g‘arib, mazlum, bemor-hasta, nochor, noumid vamuhtoj kishilarni topsa, o‘shanday bechoralar bilan bir nafas hamdam bo‘lar, undaylarning majruh ko‘ngliga malham qo‘yar edi. Shu jihatdan butun shahar xalqi undan minnatdor bo‘lib, uning karami hammani unga maftun qilgan edi”.

Halab shahrida sarvat-u hashamatli insonlar va saxovatpeshalar ko‘p, ammo ular Axiy emas. Uning o‘zgalardan butkul farq qiladigan fazilatli — oliy darajadagi javonmardligidadir. Akademik A. P. Qayumov ta‘biri bilan aytganda: “Axiyda muruvvat va futuvvat mujassam” (“Ishq vodiysi chechaklari”, 194-bet). Shundan bo‘lsa kerak, u har kuni erinmay shahar musofirxonalarini bir-bir aylanadi muhtojlarga himmat qo‘lini cho‘zadi. Axiy uchun bunday odat – qalb ehtiyoji.

Axiy shunchaki boy-badavlat, himmat-u karamni yashash dasturiga aylantirgan emas. Axiy ma‘rifati baland, dunyo ko‘rgan, hayotdagi har qanday hodisa (xoh yaxshi, xoh yomon) atrofida sovuqqonlik ilamushohada yuritish qobiliyatiga ega shaxs. Shuning uchun xotini bilan aloqador muammolardan u hayrat-u daxshatga tushmadi, esankirab qolmadi,chora izladi. Axiy tasavvuf olami talab-u tamoyillarini pishiq biladigan solikkina emas, o‘sha nazariy ko‘rsatmalarni o‘z badaniga sinovdan o‘tkazishga qodir va shunday imtihonlardan dadil o‘ta oladigan “daryo dil” inson. Axiy — tariqatning ikki katta jilg‘asini bir o‘zanga oqiza olgan solik. Futuvvat (borini bermog) va muruvvat (boridan bermog) uning ikki kaftida turgan. Muayyan sharoit shulardan qaysini talab qilsa, Axiy o‘shanisini

qo‘llagan. Farruxning dilidagi o‘sha ruhiy holat borini ayamay berishni talab qilardiki, Axiy vaziyatni to‘g‘ri baholashdan tashqari, juda o‘rinli qaror ham qabul qildi. She‘riy qissa voqealari shu yo‘sinda tabiiy, jonli davom etadi. Axiy o‘z xotinini Farruxga shar‘iy nikoh qilib beradi. Yetarli mol-mulk va yo‘l anjomlarini hozirlab, kelin-kuyovlarni Farruxning yurti (Sarandib)ga kuzatib qo‘yadi. Farrux yodgor sifatida unig namat liboslarinigina olib qoladi. Yo‘lda kuyov qo‘l solib ko‘radi. Uning ko‘zlaridan yosh o‘rnida qon oqayotganligini ko‘rgan Farruxning taajjubi oshadi va kelin bilan jiddiy suhbatlashadi. Farrux bor haqiqatdan xabar topdi va uning Axiy va axiylikka bo‘lgan sidq-u sadoqati yuz chandon oshdi. Farrux o‘sha lahzada sohibjamolni o‘ziga singil deb e‘lon qiladi.

Axiyning “omonati xiyonatsiz” vaqtlar o‘tib o‘ziga qaytariladi.

“Hayrat ul-abror” qomusiy asar bo‘lib, uning asosiy qismini tashkil etuvchi maqolat va hikoyatlarda barcha zamonlar uchun o‘ta dolzarb bo‘lgan barkamol avlod, komil inson haqidagi fikr-mulohazalar o‘z ifodasini topgan.

Ulug‘ shoir nuqtai nazarida iymon- komillikning tayanch belgisi.

Asarda joy olgan maqolatlarning barchasiga ham insoniylik, alloma tasavvuridagi komil inson qiyofasi, uning insoniyat oldidagi burchi nimalardan iborat bo‘lishi haqida juda ko‘p mulohazalar yuritiladi.³

Navoiy “Hayrat ul-abror”ning beshinchi maqolati karam ta‘rifiga bag‘ishlangan bo‘lib, 108 baytdan tashkil topgan. Karam-komil inson qiyofasida, umuman, inson umri va uning taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga molik fazilatdir. Karam-saxovat, himmat, ehson, marhamat, oliyjanoblik, yaxshilik, ochiqqo‘llilik, javonmardlik singari xilma-xil qirralarga ega. Alisher Navoiy ana o‘sha qirralarning har birini ayricha ixlos-u urg‘u bilan bo‘yoqdor yoritishga harakat qildi.

Maqolatning birinchi satridayoq ulug‘ shoirning g‘oyaviy niyati o‘zini ko‘rsatib qo‘yadi. Saxovatpeshalik-olijanoblik. Maqolat markazida ijobiy fazilatlari bilan salobat to‘kib turgan qahramon eng avvalo, ana o‘sha jihati bilan ulug‘ shoirga manzur va uning mehru oqibatini qozongan. Himmat va yaxshilikni

³Z. Ahrorova, “Hayrat ul-abror” hayratlari, // Til va adabiyot ta‘limi, 2007, 7-son, 7-sahifa.

nomigagina yuzaga chiqarib bo'lmaydi. Bu boradagi sun'iylik va soxtalik darrov o'zini ko'rsatib qo'yadi. Shundan bo'lsa kerak, Alisher Navoiy ta'sirni o'zak masaladan boshlashdan tashqari, yana bir haqiqatni qat'iyat bilan o'rta qo'yadi. Jo'mard yoxud olijanob inson bo'lib tug'ilishi lozim. Tabiatan va sidqan moyillik bo'lmas ekan, bu jabhadagi barcha sa'y-u harakatlar bekorga ketaveradi. Fikrimizcha, birinchi satrda "kisvat"ni qo'llash zamirida ana o'sha maqsad yotadi. Kiyim, ust-bosh ma'nosidagi o'sha so'z mantiqiy urg'u vazifasini o'taydi. Saxovatpeshalik bu yo'lni qismat qilgan insonning zohir-u botinidan anglashilib turishi lozim. Ochiq va himmatli panjalar sifatida shuhrat qozonadi. Bunday manzaralardan sarxush shoir himmat ko'rsatadi, o'sha panjalarni quyosh bilan yonma-yon qo'yadi. Saxovat-ta'madan yiroq. Oluvchi olganini qaytara oladimi, yo'qmi, beruvchi uchun masalaning bu jihati ahamiyatsiz bo'lmog'i lozim. Shuning uchun satrda quyosh va saxiy odam yonma-yon turibdi, hatto quyosh ibrat darajasiga ko'tarilgan.

Maqto'v, shon-shuhrat uchun sochilgan mol-mulk saxiylik emas. Hamisha va hamma yerda inson aql-u farosat doirasidan chetga chiqmasligi lozim. Isrof-illat. Hatto behuda isrofgarchilik xasislik bilan barobardir.

Navoiy "Hayrat ul-abror"ning butun bir maqolatini saxiylikni ulug'lashga bag'ishlaydi. Navoiy saxiylikni baxillikka qarama-qarshi qo'yish orqali saxiylikning afzalliklarini ochib beradi, saxiylik kishining olijanob fazilati ekanligini ko'rsatadi. Saxiylikning me'yori haqida to'xtaladi. Och bo'lmagan kishilarga kiyim berish saxiylik emas, isrofgarchilik, xushomadgo'ylik ekanini ta'kidlaydi.

U odamlarni kuch va mablag'ni foydali va o'rinli yerlarga sarf etishga targ'ib qiladi.⁴

Saxiylikni kishining olijanob fazilatlaridan biri deb bilgan Navoiy halol mehnat qilib, o'z qo'l kuchi bilan kun ko'rishni har qanday saxiylikdan ustun qo'yadi.

⁴A. Navoiy, Xamsa, Toshkent, 1960, 67-бет.

Navoiyning mehnatga va mehnat ahliga bo'lgan munosabati shu maqolatning oxirida keltirilgan "Hotam Toyi" hikoyasida yanada ravshan namoyon bo'ladi.

Navoiyning "Hayrat ul – abror" dostonida mashaqqat bilan topilgan bir diram (tanga) birov bergan xazinadan afzalligini ifodalagan "Hotam Toyi hikoyasi" keltiriladi. Bu hikoya Xoja asarida ham mavjud. Lekin Xoja bu hikoya sujetini qanday bo'lsa shunday, o'zgartirmay o'z dostoniga kiritgan emas.

Navoiy Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan "Hotam Toyi hikoyasi"dan tamagir bo'lmaslik, o'zgalar hisobiga yashashdan or qilish, halol mehnat bilan topilgan tanganing qiymatijuda baland bo'lishini uqdirish maqsadida foydalangan bo'lsa, Xoja sahovatli, himmatli, muruvvatli shohlar xususida so'z yuritib, Hotam Toyning "hotam"liklaridan birini keltiradi.

Dostonda yozilishicha, kambag'allarga rizq – ro'z bo'lishib yuradigan, birovning biron moliga ko'z olaytirmaydigan bir shoh Hotam sahovatlari haqida ko'p eshitgach, uni sinab ko'rmoqchibo'ladi. Shu niyat bilan u Hotam Toyining tengi yo'q "dulduli soniy", "gardig'ayel ham yeta olmaydigaan" otini so'ratib elchi yuboradi. Elchini xushnudlik bilan kutib olgan Hotam Toyi mehmon oldiga shu otni so'yib taom tayyorlab olib keladi. Elchi o'z maqsadini bayon etganda, Hotam Toyi:

Dediki: "Kech kelding, esa o'yu qo'y,
Topmadimu, dedim, o'shal otni so'y...
Ushbu et ul otning etidur biling,
Munga nedur chora, taomil qiling".

Bu so'zni eshitib, lol qolgan elchi:

Bu ne sahovat, bu ne himmat turur,
Bu ne karam, bu ne muruvvat turur, —

deb, uning oliy darajadagi sahovatiga madhiyalar o'qiydi.

Xalq og'zaki ijodi, u orqali yozma adabiyotda saxiylik, qo'li ochiqlik timsoli sifatida qabul qilingan "Hotam Toyi hikoyasi", aytilganidek, Navoiy va Xoja tomonidan ikki xil o'zlashtirilgan.

Alisher Navoiy bu hikoyani o‘zining buyuk g‘oya va olijanob tuyg‘ulariga bo‘ysundirib, undan ijtimoiy-falsafiy xulosa chiqargan bo‘lsa, Xoja o‘z ijodiga xos bo‘lgan odil shoh ideasini kuylab, shoh har qancha odil, insonparvar bo‘lmasin, bari bir, Hotam Toyi uni hayratga solarli darajada saxiyoq, saxovatliroq ekanligini yana bir bor ta’kidlaydi.⁵

Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror”ning beshinchi maqolatida vujud-vujudi bilan saxovatni targ‘ib qiladi. Uning xayolga keltirish dushvor bo‘lgan ochilmagan qirralarini kashf etishga erishadi. Biroq o‘sha qarashlarning tasdiq muhri sifatida “Hotami Toyi va o‘tinchi” hikoyatini taqdim qiladiki, uning ayni lavhalarining mazmuni boshqacha. Hotam-musulmon dunyosida saxovat timsoli. U haqida behisob asarlar yaratilganligi barchaga ma’lum. Alisher Navoiy she’riy hikoyatining qahramoni ham o‘sha Hotam Toyidir.⁶

Hikoyatning qisqacha mazmuni quyidagicha: Hotam degan bir saxiy kishi bo‘lgan. Hotamdan o‘zidan ham saxiy, himmatli odamni ko‘rgan-ko‘rmaganligi haqida so‘raganlarida, u quyidagi voqeani hikoya qiladi. Hotam har doim kambag‘allarga ko‘plab narsalar in’om qilar, ularni yig‘ib ziyofatlar berar edi. Shunday ziyofatlardan biri o‘tayotgan vaqtda Hotam Toy dashtga chiqadi. U yerda bir quchoq yantoqni orqalab ketayotgan mo‘ysafidni ko‘rib qoladi. Mo‘ysafid haddan tashqari holdan toygan, yukning og‘irligidan hassaga suyanib, har damda to‘xtar, og‘ir-og‘ir nafas olar, so‘ng yana mashaqqat bilan bir-ikki odim tashlar edi. Bu holni ko‘rgan Hotamning mo‘ysafidga juda rahmi keladi va unga qarab: -Ey mehnatda azoblangan zahmatkash, nima uchun o‘zingga shunchalar azob berasan? Hotam Toyning bugun ziyofat berayotganidan xabaring yo‘qmi? Tikanni tashla, mashaqqat chekma, sen ham Hotamning uyiga borib, noz-ne’matlardan bahramand bo‘l, — deydi. Shunda mo‘ysafid boshini ko‘tarib unga istehzo bilan kulib qaraydi-da, shunday javob qaytaradi:— Sen hali mehnatning lazzatini tatib ko‘rmagan

⁵МирзааҳмедоваМ, Навоийнинг “Ҳайратул -аброр” ваХожанинг “Мақсадул-атвор” асарлари

⁶VohidovR., EshonqulovH. O‘zbekmumtozadabiyotitarixi. (O‘quvqo‘llanma)-T.: Yangiasr, 2006.

ekansan, sen ham mehnat qil o'z qo'l kuching bilan kun kechir, Hotam Toy minnatini tortma. Ter to'kib topilgan bir tanga o'zgar bergan xazinadan afzaldir.

Tikonchi cholning halol mehnat, luqmai halol bilan yashamoq, garchi bu og'ir bo'lsa-da, birovning, jumladan Hotami Toyining xazina- boylik, ziyofatlaridan ham ortiqdir, chunki kimki halol mehnat bilan yashasa, birovning minnatini tortmaydi, degani Hotami Toyining quyidagi e'tirofiga, ya'ni oliyhimmatlilikda tikonchi cholning (Hotami Toyidan) ham ustun ekanligiga sabab bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, Alisher Navoiy Sharqda saxiylik timsoli sifatida shuhrat qozongan Hotami Toyidan o'z halol mehnati bilan yashashni afzal biluvchi oddiy mehnatkash tikonchi cholni komil insonning namunasi, timsoli sifatida alohida ta'kidlaydi.

Shoir mo'ysafidning javobidan Hotam izza bo'lganligini, cholning himmati uning himmatidan yuqori ekanligini bayon etadi. Shunday qilib, hikoyatda halol mehnatni, u bilan shug'ullanuvchi insonni ko'klarga ko'tarish, mehnatsevarlikni ulug'lash, tamagirlikni qoralash g'oyasi ilgari surilgan.

Navoiy mehnatni, yaratuvchilikni, har qanday saxiylik va oliyhimmatlikdan ustun qo'yadi. U mehnatsevarlikni kishining olijanob fazilatlaridan biri sifatida talqin etadi.

Hotam saxiylik bilan nom chiqargan, o'z boyligini muhtojlarga ayamay sarf qiluvchi rahmdil shaxs. Shuning bilan birga, muhtojlarga ancha yordam berishi bilan mag'rur odam. U zolim emas. Navoiy Hotamni olihimmat, saxiy obraz qilib berishdan ma'lum maqsadni ko'zda tutadi. U, bir tomondan, o'z davridagi ziqna, shavqatsiz boyonlarni Hotamdan o'rnak olshga undasa, ikkinchi tomondan, mehnatni, yaratuvchanlikni har qanday saxiylikdan ustun ekanligini uqtirmoqchi bo'ladi.

Hikoyadagi markaziy, belgilovchi — obraz mehnatkash choldir. Hikoyaning asosiy g'oyasi-mehnatchilikni ulug'lash shu chol obrazi orqali ifodalangan. Unda birgina voqea bayon etiladi. U yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan, undagi har bir so'z,

har bir detal asosiy maqsadga, g'oyani chuqurroq ifodalashga, obrazni jonli qilishga, voqeani to'laroq tasvirlashga qaratilgan.

Muallif chol obrazni individual hislatlari bilan gavdalandiradi. Cholning ma'naviy hayoti va tashqi qiyofasini mohirlik bilan tasvirlaydi. Bu tasvir obrazning ma'naviy qiyofasini ham ko'rsatib turadi.⁷

Navoiy haqiqiy inson mehnat faoliyatidagina qadr-qimmat va e'tibor qozonadi, bunday kishilar o'z mehnatlari bilan faxrlanishga to'la haqlidirlar, deb uqdiradi.

Mehnatkash chol Hotamning iltifotini, rahm-shafqat bilan aytgan so'zlarini itoatkorona eshitib qolmaydi. Balki uning o'zini mehnat qilishga da'vat etib, koyiydi. Mana mehnatkash qariya tomonidan Hotamning lutfu karamiga berilgan javobida mehnatning ahamiyati, uning birovga qaram bo'lishlikdan qutqaruvchi fazilati, mehnat kishisiga xos g'urur ta'kidlanib, o'z qo'l kuchi bilan yashashlik har qanday tekin taomdan ustun ekanligi yaxshi ochilgan. Shuning bilan birga, minnat qilish kishi uchun yoomon hislat ekanligi tanqid qilingan. Navoiy mehnatkash cholni mag'rur, o'z izzat nafs, insonlik sharafiga yoqlashga qodir kishi sifatida tasvirlagan.

Hikoyatda halol mehnat masalasi mo'ysafid obrazi orqali ochilsa, saxiylik masalasi Hotam obrazi orqali beriladi.

Hotam saxiylik bilan nom chiqargan, o'z boyligini muhtojlarga ayamay sarf qiluvchi rahmdil shaxs. Shu bilan birga, u mag'rur odam. U zolim emas. Navoiy Hotami olihimmat va saxiy kishidir. Navoiy bu hikoyatda olijanob va sahovatli Hotam bilan alamdiya va mehnatkash cholni uchrashtirishdan ma'lum maqsadni ko'zda tutadi. U bir tomondan, o'z davridagi ziqna, shafqatsiz boylarni Hotamdan o'rnak olishga undasa, ikkinchi tomondan, mehnatning, yaratuvchilikning har qanday saxiylikdan ustun ekanligini uqtiradi.

Buyuk xalqparvar shoir xalq mehnatining taqdirlanishi va qadrlanishini istadi, shuni orzu qildi. Mehnatkash guruhlarini shunday yuqori baholagan shoir jamiyatdagi mehnatkash xalq hisobiga yashovchi tekinxo'r tabaqalarni keskin

⁷ Н. Каримова, Навоий-меҳнат куйчиси, // Ўзбек тили ва адабиёти, 1965, 1-сон, 50-51-саҳифа.

qoraladi, zolim shoh, sotqin shayx-eshon, poraxo‘r qozi, beklarni va shularga o‘xshashlarni ayamay fosh qildi.

Navoiy insonning mehnatga muhabbat, rostgo‘ylik, sadoqat, to‘g‘rilik kabi olijanob hislatlarini ulug‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Алишер Навоий. Хамса (Нашрга тайёрловчи П. Шамсиев). – Т.: ЎзбФА нашриёти, 1958. 7-162 сах.
2. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 7-том. Ҳайратул –аброр. – Т.: Фан, 1991.
3. Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. (O‘quv qo‘llanma)-Т.: Yangi asr, 2006.
4. Н. Каримова, Навоий-меҳнат куйчиси, // Ўзбек тили ва адабиёти, 1965, 1-сон, 50-51-саҳифа.
5. МирзааҳмедоваМ, Навоийнинг “Ҳайратул -аброр“ ваХожанинг “Мақсадул-атвор” асарлари
6. А. Навоий, Хамса, Тошкент, 1960, 67-бет.
7. Z. Ahrorova, “Hayrat ul-abror” hayratlari, // Til va adabiyot ta’limi, 2007, 7-son, 7-sahifa.
8. Д. Саидова, АлишерНавоийижодидакомилинсонмасаласи, // Til va adabiyot ta’limi, 2007, 7-son, 8-sahifa.
9. Н. Каримова, Навоий-меҳнат куйчиси, // Ўзбек тили ва адабиёти, 1965, 1-сон, 48-50-саҳифа.